


2- §. Odam organizmining hujayraviy tuzilishi




Odam organizmi ham o'simlik va hayvonlar singari hujayralardan tashkil topgan. Organizmdagi hujayralar shakli va funksiyasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi




- Hujayraning ichki qismi quyuq modda - sitoplazma bilan to'lgan.
- Sitoplazmani sirtdan hujayra membra-nasi chegaralab turadi.
- Uning markaziy qismida yadro, sitoplazmasida hujayra organoidlari joylashgan.
- Barcha organoidlar birgalikda hujayra-ning hayot faoliyatini ta'minlaydi.


- **Hujayra membranasi** — sitoplazma va organoidlarni o'rab turadigan ikki qavatli juda yupqa parda, undagi maxsus naychalar moddalarni hujayra ichiga va hujayradan tashqariga tanlab o'tkazadi;



Yadro yumaloq shaklda hujayra markazida joylashgan bo'lib, yadrocha va xromatindan iborat, hujayra faoliyatini boshqarib turadi, irsiy belgilarni nasldan naslga o'tkazadi, hujayraning bo'linishi davrida undagi xromatindan xromosomalar shakllanadi;




Endoplazmatik to’r – sitoplazmadan o'tadigan naychalar va kanalchalardan iborat bo'lib, hujayra qismlarini o'zaro bog'lab turadi, nay-chalar orqali hujayrada sintezlangan mahsulotlar hujayraning turli qismlariga yetkazib beriladi;




Golji majmuasi - yadro atrofida joylashgan. Hujayrada sintezlana-digan moddalarni to'plash va tarqa-tish vazifasini bajaradi;




Ribosomalar - endoplazmatik to'r membranalarida joylashgan, ularda hujayra oqsillari sintezlanadi,




lizosomalar - biologik faol mod-dalar saqlovchi, sitoplazmada joylash-gan pufakchalar, oziq moddalarni parchalab, sitoplazmaga o'tkazadi;




Mitoxondriyalar - hujayraning energiya stansiyalari bo'lib, hujayra faoliyatida sarflanadigan energiyani hosil qiladi va to'playdi;



Vakuola - moddalarni qamrab olib, hujayra ichiga o'tkazadigan yoki hujayradan tashqariga chiqaradigan mayda pufakchalar;




Xromosomalar - organizmning tuzilishi va xususiyatlari to'g'risida axborot saqlaydigan tuzilmalar. Bo'linayotgan hujayrada shakllanib, mikroskopda ko'rinadigan bo'lib qoladi. Odam tana hujayralarida 46 tadan (23 juft), jinsiy hujayralarda 23 tadan xromosomalar bo'ladi



Hujayraning kimyoviy tarkibi.

Anorganik moddalar

Organik moddalar






Tirik organizm massasining 60—70% i suvdan iborat


Suv bilan birga oziq moddalar hujayraga o'tadi va moddalar almashinuvi mahsulotlari hujayradan chiqarib tashlanadi

Suv hujayrada kechadigan kimyoviy reaksiyalar uchun muhim hisoblanadi.





Hujayra ichidagi va uning tashqarisidagi suyuqlikda **kaliy, natriy, kalsiy** va **magniy** tuzlari bo'ladi.






Oqsillar

Nuklein kislotalar

Organik moddalar dan

Yog'lar

Karbonsuv lar





Uyga vazifa

1. Darslikdagi mavzuni o`qib o`rganib, unda uchragan tayanch so`zlarni taxlil qiling.
2. Mavzuga oid rasmlarni bilimlaringizni mustaxkamlash daftaringizga chizib qo`ying.

